

MULOQOT XULQIDA IJOBIY ISTAK BIRIKLARINING O'RNI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.013>

Shahnoza Musirmon-qizi Xaydarova
shahnozaxaydarova2021@gmail.com
Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Ushbu maqolada har bir xalqqa xos bo'lgan muloqot xulqini belgilab beruvchi nutqiy birliklar va ularning muloqot jarayonida bajaradigan kommunikativ vazifalari tahlilga tortiladi. Xususan, o'zbek xalqining nutqiy etiketiga xos bo'lgan "Assalomu alaykum", "Vaalaykum assalom" nutqiy birliklarining muloqot jarayonida salomlashuv bosqichini shakllantirishdagi o'rni va ahamiyati misollar asosida yoritib beriladi. Mazkur birliklarning fatik muloqot doirasida ijobiy kommunikativ muhitni vujudga keltirish hamda muloqotning samarali davom etishini ta'minlashdagi roli ochib beriladi.

Kalit so'zlar: muloqot xulqi, nutqiy birlik, madaniyat, nutqiy etiket, muloqot jarayoni, ijobiy istak birliklari, xulq-atvor, fatik muloqot

THE ROLE OF POSITIVE WISH EXPRESSIONS IN COMMUNICATIVE BEHAVIOR

Shahnoza Musirmon-qizi Xaydarova
shahnozaxaydarova2021@gmail.com
Shahrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: this article analyzes speech units that determine communicative behavior specific to each nation and the communicative functions they perform in the process of interaction. In particular, the role and significance of the speech etiquette units "Assalomu alaykum" and "Vaalaykum assalom", which are characteristic of Uzbek speech etiquette, in shaping the greeting stage of communication are illustrated through examples. The study reveals the role of these units within phatic communication in creating a positive communicative environment and ensuring the effective continuation of interaction.

Keywords: communicative behavior, speech unit, culture, speech etiquette, communication process, units of positive desire, behavior, phatic communication

Tilshunoslikda muloqot jarayoni va muloqot jarayonida nutqiy etiketga amal qilish alohida tadqiq etiladigan alohida sohalaridan biri sifatida qaraladi. Xususan, turli

xalqlarda bir-biridan farqlanadigan etiket qoidalari mavjud. O'zbek muloqot xulqiga xos bo'lgan ayrim jihatlar boshqa xalqlar uchun mos kelmasligi mumkin. Muloqot xulqi deganda biror xalqning uzoq yillar davomida shakllanib kelgan va o'z milliyligini aks ettirib turadigan xulq-atvorlar jamlanmasi tushuniladi. Uning shakllanishida millatning qaysi dinga mansubligi, qanday atrof-muhitda egaligi va ijtimoiy sharoiti muhim omil vazifasini bajaradi. Bu jarayonda yuqorida sanab o'tilgan omillar tilda o'z aksini qoldiradi va ma'lum birliklar orqali xalqlarning muloqot xulqi uchun asos vazifasini bajaradi. Tilshunos olim V. fon Gumbold o'zining tilshunoslikka oid qarashlarida har bir xalqning tilida o'sha xalq tarixi, madaniyati, umuman, butun ruhiy dunyosi namoyon bo'lishini ta'kidlab, xalq tili uning ruhidir va xalq ruhi tildir, deya lingvomadaniyatshunoslik fanining tamal toshini qo'ygan bo'lsa[4,90-b.], N.I.Jinkin esa til madaniyatning tarkibiy qismi va quroli, u ruhiyat borlig'i, madaniyat ko'rinishi, milliy mentallikning xususiy belgilarini o'zida ifodalashini ta'kidlaydi[1,368-b.].

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyatni birlashtiruvchi soha bo'lib, unda xalqning qadriyatlari aks etadi. "Lingvomadaniyat lisoniy belgilarda mujassamlangan va lisoniy/nutqiy jarayonda voqelanuvchi madaniyatdir"[2,123-b.]. O'zbek muloqot xulqiga xos bo'lgan ijobiy istak birliklari ham ana shunday tarixiy jarayonda shakllanib, insonlarning muloqotiga asrlar davomida singib ketgan. Masalan, to'y har bir xalqqa xos bo'lgan marosim hisoblanadi. Ammo xalqlarning yashash sharoiti, iqtisodiy va ijtimoiy hayot tarzi turli xil bo'lgan o'zbeklar va xitoyliklar to'yda farqli ijobiy istak birliklaridan foydalanishadi. Bunga sabab qilib o'zbeklarning serfarzand ekanligi, xitoyliklarning esa qonuniy jihatdan faqat bitta farzand ko'ra olishlarini aytish mumkin. O'zbeklar to'yda kelin-kuyovga qarata "Serfarzand, serdavlat bo'ling", "O'g'il-qizingiz ko'p bo'lsin", "Solih va soliha farzandlar bersin", "Uvali-juvali bo'lishsin" deya o'zlarining ijobiy istaklarini izhor etish o'zbeklarning mulqot xulqiga xos bo'lsa, xitoyliklar uchun to'yda bunday ijobiy istak birliklarini aytish xitoy xalqining muloqot xulqiga mos kelmaydi. Shuning uchun har bir xalqning o'ziga xos muloqot xulqi va ana shu xulqqa xos nutq birliklari mavjud bo'lib, ularni ana shu vaziyatni hisobga olgan holda qo'llash muloqotning samarali bo'lishida muhim rol o'ynaydi.

Muloqot jarayonida insonlar bir-biri bilan fikr almashishadi, ya'ni muloqotdan ko'zlangan asosiy maqsad aloqa o'rnatishdir. Muloqotning fikr almashishdan boshqa yana bir qancha vazifalari ham mavjud bo'lib, tilshunos olim S.Mo'minov muloqotning muhim vazifalaridan biri sifatida mulozamat (manzirat) ifodalash ekanligini alohida ta'kidlaydilar[3,13-b.]. O'zbek tilidagi ijobiy istak birliklari muloqotda aynan shu vazifani bajaruvchi muhim vositalardan biridir. Bunday holat notanish kishi bilan bo'lgan muloqot jarayonida, uzoq qarindoshlar bilan uchrashib qolganda muloqotda asosiy vazifani bajaradi. Muloqotning bu vazifasi tilshunoslikda fatik muloqot termini bilan nomlanib, unga doir tadqiqotlar ham olib borilgan. Muloqat

jarayonida qo'llaniluvchi ijobiy istak birliklari ana shu fatik muloqot vositasi sifatida tadqiqot obyekti bo'la oladi. Xususan, o'zbek xalqiga xos bo'lgan muloqot xulqining boshlang'ich nuqtasi "Assalomu alaykum" jumlasini bilan boshlanib, bu birlikning ma'nosi "Sizga tinchlik, salomatlik tilayman" bo'lib, muloqotning samarali kechishi uchun unga javoban suhbatdoshi ham "Vaalaykum assalom", ya'ni "Sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman" deya o'zining ijobiy istagini bildiradi va jarayonning yaxshilanishiga olib keladi. Ammo hozirgi kunda nutqimizda qo'llanilayotgan "Assalomu alaykum", "Vaalaykum assalom" birliklarining yuqoridagi ma'nosi xiralashib, muloqotda kirish so'z vazifasini bajarib qolyapti. Shuning uchun ham o'zbek tilini ona tili sifatida ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonida yoki xorijiy til sifatida o'qitish jarayonida ham bu birliklarning oddiy kirish so'z emasligini, ularning o'ziga xos ma'nosi bor ekanligi o'rgatish muhim hisoblanadi. Shunda chet elliklar bilan bo'lgan muloqot ham yoki tanimagan bir yurtdoshingiz bilan bo'lgan muloqot ham to'g'ri va samarali amalga oshadi. G'.G'ulomning "Xasis" hikoyasida Mirkomil quruq va go'rkovning suhbatini shunday boshlanadi: "Qo'yni qoziqdan yechib, mozorga yetakladi. To'g'ri go'rkovga uchrashdi.

- Assalomu alaykum!

- Vaalaykum assalom!

- Uka, - dedi Mirkomil quruq go'rkovga, - befarzand kishiman. Qarib qoldim. O'lsam-netsam, inshoollo, o'zing ko'marsan. Illo, mendan xabar olib, go'rkov haqi to'laydigan vorislarim yo'q. Mana shu qo'yni manga qaziydigan go'r va ko'mish xarajatlari haqi uchun hozirdan naqd olib qo'y" tarzida davom etadi. [6,240-241-b.] Ana shu jarayonda suhbatning yaxshi davom etishiga qulay vaziyat yaratish uchun muloqotning assalomu alaykum bilan boshlanishi asos bo'ladi, deb aytish mumkin. Muloqotda adresant faoliyati bilan bog'liq jarayonlardan biri sifatida salomlashuv va murojaat bosqichi adresat faoliyati bog'liq bo'lgan tinglash va munosabat bildirish bosqichlariga zamin hozirlaydi. Chunki muloqotning ma'lum bir natijadorlikka erishishi uchun tinglash bosqichi muhim rol o'ynaydi. Olim Ralf Nikolzomning fikriga qaraganda ko'proq aqliy mehnat bilan mashg'ul bo'ladigan kishilar o'z vaqtini muloqotning turli aspektlariga quyidagicha taqsimlashar ekan: 40% - tinglash, 35% - so'zlash, 16% - o'qish, 9% - yozish kabi[3,29-b.]. Demak, muloqotda tinglash bosqichi katta foizni tashkil etib, qolgan aspektlarning samarali amalga oshishi uchun asos vazifasini bajaradi. Yuqorida keltirgan misolimizda ham asar qahramonlarining suhbatini salomlashuvdan boshlanib, murojaat, tinglash kabi bosqichlardan tashkil topgan ayni jarayonda adresatning yaxshi tinglovchi ekanligi samarali muloqotni shakllantirgan. Mirkomil-quruq va go'rkovning yana bir suhbatidan olingan parchada ham o'zbek muloqot xulqiga xos bo'lgan jihatlarni ko'rishimiz mumkin:

"Shoshilib borib go'rkovning eshigini taqillatdi. Go'rkov chiqdi.

- Assalomu alaykum!

- Vaalaykum assalom!
- Xizmat, keling, Mirkomil aka, tinchlikmi?
- Tinchlik bo'lmay o'lsin, - dedi Mirkomil-quruq.
- Qoplonbek qishlog'ida bir qizamiq chiqqan bolaga yarim qoshiqqina simob

ichirgan edim, o'lib qolibdi"[6,241-b.].

Salomlashuv xulqiga har ikkala suhbatdosh to'la va to'g'ri amal qilgan, go'rkov odob doirasida murojaat qilgan, shuning uchun ham Mirkomil-quruq sovuq xabarni birdan aytib qo'ya qolmasdan avval suhbatdoshini "Tinchlik bo'lmay o'lsin" deya tayyorlab oladi va gapini davom ettiradi.

Shuningdek, notanish inson bilan muloqot o'rnatish jarayonida ham "Assalomu alaykum" yaxshi vositachi vazifasini bajaradi.

- Assalomu alaykum, bolajon!

- Vaalaykum assalom! - o'zi yig'lab tursa ham dona-dona qilib alik oldi bolakay[5,40-b.].

Yuqorida keltirgan misolda ham bir-birini tanimaydigan ikki inson o'zaro muloqatga kirishishi uchun qulay vaziyat yaratilyapti va so'zlovchi tinglovchiga "Bolajon" deya ijobiy munosabatda bo'lganligi uchun bolakay yig'lab turganiga qaramay alik olib, suhbatni davom ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, muloqot jarayoni va unda nutqiy etiketga amal qilish masalasi tilshunoslikning muhim va dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Har bir xalqning muloqot xulqi uzoq tarixiy taraqqiyot davomida shakllanib, milliy mentalitet, diniy e'tiqod, ijtimoiy hayot tarzi hamda madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda rivojlangan. Mazkur omillar til tizimida o'ziga xos nutq birliklari orqali namoyon bo'lib, muloqotning samarali kechishini ta'minlaydi.

Tadqiqot davomida o'zbek muloqot xulqiga xos bo'lgan ijobiy istak birliklari nafaqat axborot almashish, balki mulozamatni ifodalash, ijtimoiy yaqinlikni mustahkamlash hamda muloqot uchun qulay psixologik muhit yaratish vazifasini bajarishi aniqlandi. Ayniqsa, salomlashuv va ijobiy istak birliklari fatik muloqot vositasi sifatida muloqotning boshlang'ich bosqichida muhim ahamiyat kasb etib, suhbatdoshlar o'rtasida o'zaro ishonch va hurmatni yuzaga keltiradi.

Badiiy matnlar tahlili, xususan, G'.G'ulom asarlaridan keltirilgan misollar o'zbek muloqot xulqida salomlashuv, murojaat, tinglash va munosabat bildirish bosqichlari uzviy bog'langanligini ko'rsatdi. "Assalomu alaykum" va "Vaalaykum assalom" birliklari muloqotning oddiy kirish unsuri bo'lishdan tashqari, chuqur semantik va pragmatik mazmunga ega bo'lib, suhbatning muvaffaqiyatli davom etishiga zamin yaratadi. Ushbu birliklarning zamonaviy nutqda semantik xiralashuvi esa ularni ta'lim jarayonida ongli ravishda tushuntirish zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, muloqot jarayonida tinglash bosqichi yetakchi o'rin tutadi va adresant hamda adresat o'rtasidagi nutqiy muvozanatni ta'minlaydi. Ijobiy istak

birliklarining o‘rinli va vaziyatga mos qo‘llanishi esa muloqotning pragmatik samaradorligini oshiradi.

Umuman olganda, o‘zbek muloqot xulqiga xos nutqiy etiket birliklarini tizimli o‘rganish nafaqat milliy tilshunoslik, balki madaniyatlararo muloqot, tarjima nazariyasi hamda ona tili va xorijiy tilni o‘qitish metodikasida muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bu kabi tadqiqotlar muloqot madaniyatini yuksaltirish, nutqiy kompetensiyani rivojlantirish va turli millat vakillari o‘rtasida samarali muloqotni ta’minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. - М., 1982 // www.klex.ru/mwh; Жинкин Н.И. Язык. Речь. Творчество. - М., 1998. (- 368 с.) www.klex.ru/mwh
2. Красных В.В. Грамматика лингвокультуры, или что держит языковую картину мира?// Экология языка и коммуникативная практика. Сетевое научное издание. - М., 2013. - №1. - С. 123.
3. Mo‘minov S. O‘zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari. Fil.fan.dok. dis. avtoreferati. - Toshkent, 2000.
4. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. Fan va texnologiya. - Toshkent, 2007.
5. Ulug‘bek Hamdam. To‘rtko‘cha. Yangi asr avlodi. - Toshkent, 2024.
6. G‘afur G‘ulom. Shum bola. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi. - Toshkent, 2016 .